

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

UO‘K: 338.486(575.1)

MIRZAYEVA LOLA SHAVKATOVNA

**O‘ZBEKISTON MEHMONXONALARI FAOLIYATIGA G‘ARB
MODELINI TATBIQ ETISH MEXANIZMLARI**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan**

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar:

**Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor**

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. MEHMONDO‘STLIK INDUSTRIYASI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	11
1.1. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni boshqarish maqsadlariga erishishda turizm industriyasining roli.....	11
1.2. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda mehmondo‘stlik korxonalarining nazariy yondashuvlari va boshqaruv omillari.....	21
1.3. G‘arb modelining moslashuv omilini hisobga olgan holda iqtisodiy rivojlanishni boshqarishda brendning ahamiyati.....	29
I-bob bo‘yicha xulosa.....	37
II BOB. INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA MEHMONDO‘STLIK INDUSTRIYASI KORXONALARI IQTISODIY MODELLARINI RIVOJLANISHI TAHLILI.....	39
2.1. G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida iqtisodiy rivojlangan turizm industriyasi korxonalarini boshqarish amaliyotini tahlili	39
2.2. Mehmondo‘stlik industriyasi korxonalarining respublika iqtisodiyotiga qo‘shgan hissasini baholash.....	52
2.3. Turizm xizmatlari bozoridagi mehmondo‘stlik industriyasining holati va uning tahlili.....	63
II-bob bo‘yicha xulosa.....	73
III BOB. STRATEGIK RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA MEHMONDO‘STLIK INDUSTRIYASI KORXONALARINI G‘ARBIY BOSHQARUV MODELINI MOSLASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	75
3.1. Turizm xizmatlari bozorini rivojlantirish yo‘llari.....	75
3.2. Barqaror o‘sish sharoitida turizm xizmatlarning rivojlanishi va faoliyat ko‘rsatish samaradorligini oshirish.....	84
3.3. Joylashtirish vositalari daromadlilik darajasini ekonometrik baholash va ko‘rsatkichlarini prognozlashtirish istiqbollari.....	95
III-bob bo‘yicha xulosa.....	109
XULOSA	112
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	116

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda mehmondo'stlik sohasini rivojlantirishga ustuvor soha sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jihat mehmonxonalar faoliyatini keng taraqqiy qildirish, xalqaro mehmondo'stlik munosabatlarini samarali rivojlantirish va mavjud mehmonxonalar faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan jahon tajribalarini qo'llashni taqozo qiladi. Mehmondo'stlik sohasi korxonalariga g'arb boshqaruv modelini tatbiq etish mexanizmlari xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, mehmonlar tajribasini yaxshilash, korporativ madaniyatni mustahkamlash hamda resurslardan samarali foydalanish imkonini berishi bilan ahamiyatlidir. Qo'shilgan qiymat zanjirini optimallashtirish, standartlashtirilgan servis protokollarini joriy etish, mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalari, KPI asosida inson resurslarini boshqarish va raqamli platformalardan foydalanish mehmondo'stlik korxonalari raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi. "Bu borada jahonda 2024-yil holatiga ko'ra 700 000 nafardan ortiq mehmonxona va dam olish maskanlari mavjud bo'lib, jahon bo'ylab kamida 17,5 mln nafar mehmonxona xonasi mavjud. 2018-yildan 2024-yilgacha mehmonxonalar sonining o'sishi 1,1 foizni tashkil etdi"¹. Shunday ekan, xalqaro mehmondo'stlik munosabatlarini amalga oshirishga qaratilgan tajribalarni tatbiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mehmondo'stlik sohasida G'arb boshqaruv modelini joriy qilish global bozorda yuqori sifatli servis va iqtisodiy samaradorlikka erishishning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Jahonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishishda turizm sohasini tashkil etish, turizm korxonalarining nazariy yondashuvlari va boshqaruv omillarini tadqiq qilish, mehmondo'stlik munosabatlarida g'arb modelining moslashuv omilini hisobga olish yo'nalishidagi tadqiqotlar kengayib bormoqda. Bu borada turizm tashkilotlarini boshqarish amaliyotini tahlil qilish, mehmondo'stlik sohasi korxonalari hissasini baholash,

¹ <https://www.zoomshift.com/blog/hotel-industry-statistics>

mehmondo'stlik sohasi holati va uning shakllanishini tahlil qilish masalalari bo'yicha tadqiqotlar ustuvor darajada bajarilmoqda.

Yangi O'zbekistonda mehmondo'stlik sohasini samarali rivojlantirish mexanizmini shakllantirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan taraqqiyot strategiyasining 98-maqsadida O'zbekiston imidjini jahon maydonida ilgari surishni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar majmuini tayyorlash va amalga oshirish yuzasidan "O'zbekistonning sayyohlik brendini xorijda targ'ib qilish bo'yicha keng reklama kampaniyasini o'tkazish"² lozimligi ta'kidlab o'tilgan. Shunday ekan, O'zbekistonda mehmonxonalar brendini yaratish masalasi ustuvor vazifa bo'lib xizmat qiladi. Bu borada O'zbekistonda mehmondo'stlik sohasi korxonalari uchun mehmondo'stlik sohasi korxonalarini strategik rivojlantirish, g'arbiy boshqaruv modelini tanlash, mamlakatimiz mehmonxonalariga moslashtirish mexanizmini amalga oshirish, rivojlangan xorij tajribasini tahlil qilish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-son "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2024-yil 12-yanvardagi PQ-20-son "O'zbekiston Respublikasida to'siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son "Respublika turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/docs/5841063>

qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xorijiy mamlakatlarda mehmondo'stlik sohasi tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish va bu borada g'arbiy boshqaruv modelini moslashtirish bilan bog'liq nazariy-uslubiy masalalar A.Agrawal, J.Connell, R.Devi, J.Dhar, G.Goela, X.Ling, A.Misra, Dash S.Ranjan, J.Stephen, D.Tang, X.Chen, W.Ye, A.Xu, Ch.Wang, H.Zeng³. MDH olimlaridan Ya.V.Batsina, M.B.Birjakov, V.P.Dishlevoy, Yu.S.Klyuyeva, A.S.Kuskov, Yu.A.Matyuxina, S.Medlik, X.Ingram, G.B.Munin, Ye.Yu.Nikolskaya, V.I.Nikiforov, T.V.Palnova, Z.I.Timoshenko, T.N.Tretyakova⁴ va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

O'zbekistonda mehmondo'stlik sohasi tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish va bu borada g'arbiy boshqaruv modelini moslashtirish masalalari Z.Dj.Adilova,

³ Devi R., Agrawal A., Dhar J., Misra A. Forecasting of Indian tourism industry using modeling approach. // Methods X, 12 (2024), 102723. – pp.1-2., Goela G., Ranjan Dash S. Household pandemic Internet search intensity and stock returns: A case of tourism industry resiliency. // IIMB Management Review, 2023, 35. – pp. 426-440., Stephen J. Page, Connell J. Dementia as a global challenge: Progress and prospects for creating more dementia-inclusive tourism industries. // Tourism Management, 104 (2024), 104916. - p. 11., Chen X., Ling X. The influence mechanism of resource sharing on tourism industry innovation. // Heliyon, 10 (2024), e25855. – pp.1-2., Xu A., Wang Ch., Tang D., Ye W. Tourism circular economy: Identification and measurement of tourism industry ecologization. // Ecological Indicators, 144 (2022), 109476. - pp.3., Zeng H., Wang Ch., Chen J., Tang D., Xu A. Pathways to tourism industry ecologization: A technology-organization-environment configuration framework. // Ecological Indicators, 156 (2023). 111119. -pp.1-11.

⁴ Бацына Я.В., Ключева Ю.С., Паленова Т.В. Пути развития мировой индустрии гостеприимства и туризма. // Вестник Алтайской академии экономики и права, 2022, №9-3. - с 297-303. URL: <https://vael.ru/ru/article/view?id=2473> (дата обращения: 06.07.2024)., Биржаков М.Б., Никифоров В.И. Индустрия туризма: перевозки. Издание третье, переработанное и дополненное. - СПб.: Издательский дом Герда, 2007. - с. 15., Матюхина Ю.А. Индустрия туризма [Электронный ресурс]: учеб. пособие / Ю.А. Матюхина. - 2-е изд., стер. - М.: Флинта, 2013. - с. 18., Медлик С., Инграм Х. Гостиничный бизнес. Учебник. – М.: ЮНИТИ, 2005. С. 239., Третьякова Т.Н. Международные гостиничные цепи: учебное пособие. / Т.Н.Третьякова. – Челябинск: Издательский центр ЮУрГУ, 2020. С. 107., Кусков А.С. Гостиничное дело. Учебное пособие. - М.: Дашков и Ко, 2009. С. 328., Никольская Е.Ю. Основы менеджмента и управление персоналом в индустрии гостеприимства. / Е.Ю.Никольская, Л.В.Семенова. – М.: Общество с ограниченной ответственностью «Издательство «КноРус», 2020. - 226 с., Тимошенко З.И., Мунин Г.Б., Дышлевой В.П. Маркетинг гостинично-ресторанного бизнеса 2011-2017 tourism-book.com. [Электронный ресурс]. <https://tourism-book.com/pbooks/book-37/ru/>

M.T.Aliyeva, D.Y.Bekjanov, A.A.Eshtayev, A.N.Norchayev, R.Hayitboyev, D.S.Umirova, B.Sh.Safarov, R.H.Shodiyev, G.R.Tursunova, I.S.Tuxliyev, D.T.Xudayberganov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan⁵.

Ammo, ushbu tadqiqotlarda O'zbekistonda mehmondo'stlik sohasi tashkilotlari uchun G'arbiy boshqaruv modelini yaratish va unga moslashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar yetarlicha amalga oshirilmaganligi dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalarini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Bozor raqobati sharoitida real sektor tarmoqlari hamda korxonalar rivojlanishining ilmiy-metodologik asosini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda mehmondo'stlik sohasi tashkilotlariga g'arb boshqaruv modelini tadbqiq etish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni boshqarish maqsadlariga erishishda turizm sohasining rolini aniqlashtirish;

hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda mehmondo'stlik tashkilotlarining nazariy yondashuvlari va boshqaruv omillarini tadqiq qilish;

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida iqtisodiy rivojlangan turizm sohasi tashkilotlarini boshqarish amaliyotini tahlil qilish;

⁵ Adilova Z.Dj. Xalqaro mehmondo'stlik menejmenti. O'quv qo'llanma. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot uyi", 2021. - 100 b., Bekjanov D.Y. Innovatsion yondashuvlar asosida turistik destinatsiya raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish. // Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (RhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Urganch: UrDU, 2021. – 20 b. Eshtayev A.A. Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi turizm tarmog'i misolida)". Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. Samarqand (2019)., Tuxliyev I., Hayitboyev R., Safarov B., Tursunova G. Turizm asoslari. Darslik. – T.: Iqtisodiyot-moliya, 2014. –262 b., Aliyeva M.T., Norchayev A.N. Turizm menejmenti. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2007. – 14 b., B.Sh. Safarov Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari. //Monografiya. - T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2016. –148 b.; Pardayev O.M. Menejment. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2019. –248 b.; Shodiyev R.H., Umirova D.S., Xudayberganov D.T., Umirova D.S. Hududiy turizmni innovatsion yondashuv asosida takomillashtirish (Qashqadaryo viloyati misolida). // Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – T.: TDIU, 2022. - 19 b.

mehmondo'stlik sohasi tashkilotlarining mamlakat iqtisodiyotiga qo'shgan hissasini baholash;

turizm xizmatlari bozoridagi mehmondo'stlik sohasining holati va uni rivojlantirish yo'llari bo'yicha takliflar berish;

g'arb modelining moslashuv omilini hisobga olgan holda iqtisodiy rivojlanishni boshqarish samaradorligini baholash;

barqaror o'sish sharoitida turizm xizmatlarining rivojlanishi va faoliyat ko'rsatish samaradorligini oshirish;

joylashtirish vositalari daromadlilik darajasini ekonometrik baholash va ko'rsatkichlarining prognoz qiymatlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida mehmondo'stlik sohasi tashkilotlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib O'zbekiston mehmondo'stlik sohasi tashkilotlariga g'arb boshqaruv modelini tadbiq etish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, induktsiya, anketa-so'rovi, deduktsiya, SWOT-tahlil, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, monografik yondashuv, ekonometrik modellash va prognozlashtirish kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra barqaror o'sish sharoitida mamlakat turizm xizmatlari bozorini rivojlantirishda "sof turizm bozori" modelini tuzish turistik mahsulot va xizmatlarning taklifi hamda talabining bevosita zamonaviy joylashtirish vositalari subyektlari o'rtasida shakllanishi va ayirboshlanishi bilan tavsiflanuvchi iqtisodiy model jihatidan takomillashtirilgan;

mehmondo'stlik sohasi tashkilotlarining mamlakat iqtisodiyotiga qo'shgan hissasini ekspress baholash usuli mehmonxona ($1 \leq M \leq 5$), xostel ($0,5 \leq M \leq 2$) va oilaviy mehmon uylari ($1 \leq OMU \leq 2$) faoliyatining asosiy jihatlarini hisobga oluvchi ball shkalalarini tatbiq etish orqali takomillashtirilgan;

jahondagi top-10 mehmonxonalar brendlarining logotiplari asosida joylashtirish vositalarining imijini namoyon etuvchi taniqli brendlarni yaratish uslubi milliy qadriyatlar va mahalliy imkoniyatlarni uyg'unlashtirish dastaklarini joriy etish orqali takomillashtirish asosida "Farovon" brendi yaratish taklifi ishlab chiqilgan;

O'zbekistonda joylashtirish vositalaridan olingan daromad hajmi va unga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlarining trend modellari asosida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mashhur mehmonxonalar tajribalari misolida mehmonxonalar brendlarini yaratishning strategik yo'nalishlari belgilanib berilgan;

"Farovon" brendi ostida milliy mehmonxonalar brendini yaratish mumkinligi asoslangan;

zamonaviy boshqaruv usullari orqali mehmondo'stlik tashkilotlarining respublika iqtisodiyotiga qo'shgan hissasini baholash usuli taklif etilgan;

mamlakatimiz turizm xizmatlari bozorini samarali rivojlantirish modeli tuzilmasi taklif etilgan;

mamlakatimizda joylashtirish vositalari daromadlilik darajasini ekonometrik modellar orqali baholash taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiya ishida qo'llanilgan metodologik yondashuvlarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalar orqali, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi hisobot ma'lumotlari va internet manbalari, davriy hisobotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning amaliyotda sinovdan o'tkazilganligi, olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan mehmonxonalari uchun G'arbiy boshqaruv modelini moslashtirish mexanizmini ishlab chiqish, G'arbiy mehmonxonalarni boshqarish modelini moslashtirishning ilmiy-uslubiy

asoslarini O'zbekiston mehmonxonalarining rivojlantirish dasturlari va strategiyalarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi, hokimliklar, mehmonxonalar uchun G'arbiy boshqaruv modelini moslashtirish mexanizmini yaratish va takomillashtirish bo'yicha takliflardan foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston mehmondo'stlik sohasi tashkilotlariga g'arb boshqaruv modelini tadbiq etish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra barqaror o'sish sharoitida mamlakat turizm xizmatlari bozorini rivojlantirishda "sof turizm bozori" modelini tuzishni turistik mahsulot va xizmatlarning taklifi hamda talabining bevosita zamonaviy joylashtirish vositalari subyektlari o'rtasida shakllanishi va ayirboshlanishi bilan tavsiflanuvchi iqtisodiy model jihatidan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy ishlanmalardan oliy o'quv yurtlari talabalarini uchun tavsiya etilgan "Xalqaro turizm menejmenti" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda turistik mahsulot va xizmatlarning taklifi hamda talabini iqtisodiy model jihatidan takomillashtirishga oid "sof turizm bozori" modeli bo'yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

mehmondo'stlik sohasi tashkilotlarining mamlakat iqtisodiyotiga qo'shgan hissasini ekspress baholash usuli mehmonxona ($1 \leq M \leq 5$), xostel ($0,5 \leq M \leq 2$) va oilaviy mehmon uylari ($1 \leq OMU \leq 2$) faoliyatining asosiy jihatlarini hisobga oluvchi ball shkalalarini tatbiq etish orqali takomillashtirish bo'yicha taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-fevraldagi "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3514-son Qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasining 2025-yil 14-oktyabrdagi 371-25-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni joriy

qilinishi mehmonxonalar, xostellar va oilaviy mehmon uylari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini o‘rtacha 5 foizga oshirish imkonini yaratilgan;

jahondagi top-10 mehmonxonalar brendlarining logotiplari asosida joylashtirish vositalarining imijini namoyon etuvchi taniqli brendlarni yaratish uslubi milliy qadriyatlar va mahalliy imkoniyatlarni uyg‘unlashtirish dastaklarini joriy etish orqali takomillashtirish asosida “Farovon” brendini yaratish bo‘yicha taklif O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-fevraldagi “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3514-son Qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasining 2025-yil 14-oktyabrdagi 371-25-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifni joriy qilinishi Xiva shahrida joylashgan “Farovon” mehmonxonasiga xos bo‘lgan mashhur turistik brendni yaratish imkonini bergan;

O‘zbekistonda joylashtirish vositalaridan olingan daromad hajmi va unga ta’sir etuvchi omil ko‘rsatkichlarining trend modellari asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari bo‘yicha taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida to‘siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-20-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasining 2025-yil 14-oktyabrdagi 371-25-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklif asosida 2030-yilga kelib, joylashtirish vositalari daromadlilik darajasi ulushini 1,2 barobarga oshirish mumkinligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda, hamda 6 ta tezislar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiya umumiy hajmi 120 betni tashkil etadi.

